



AHOLI DAROMADLARI TARKIBI VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI

Xakimova Nasiba Abduraimovna

*Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti*

Moliya va turizm kafedrasi o'qituvchisi

Ma'lumki, aholi farovonligi va turmush darajasi sifati yaxshilash Prezidentimiz va davlatimizning oliy maqsadidir. Bu maqsadga erishishda aholi daromadlari asosiy rol o'ynaydi. Ushbu maqolada aholi turmush darajasi va daromadlarning iqtisodiy mazmuni, ularning tarkibi, daromadlarning aholi turmush darajasiga ta'siri batafsil yoritilib boriladi.


Aholi daromadlari — barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko'rsatilgan bepul xizmatlar summasi va aholining milliy daromaddagi hissasi tushiniladi.

Aholining jami turdagi daromadlari manbai — ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar, mu-kofot, foyda, dividend, zayom va lotereya yutug'i, bank to'lagan foiz puli, ko'chmas mulkdan kelgan renta to'lovi va ijara puli, sug'urta qoplamalari va boshqalardan iborat. Bozor sharoitida aholi daromadlarining eng katta qismi pul shakliga ega. Qishloq aholisi o'zining tomorqa xo'jaligidan ham mahsulot olib daromad ko'radi va u natural daromadga kiradi. Shuningdek, aholining yordamga muhtoj qatlamlariga bepul mahsulot beriladi va xizmatlar ko'rsatiladi (bepul ovqatlanish, kiyim-kechak, doridarmon, transport va kommunal xizmati va hokazo); bular natural daromadlar hisoblanadi. Aholi daromadlari nominal va real daromadlarga bo'linadi. Nominal daromad aholi muayyan pul summasi shaklida olgan daromad bo'lib, inflyatsiya ta'sirida uning xarid qobiliyati pasay-ishi mumkin. Real daromad — pul shaklidagi daromadga



amalda qanday miqdorda iste'mol buyumlari va xizmatlar xarid etish mumkinligini ko'rsatadi. Aholi jon boshiga hisoblangan real daromad aholi turmush darajasining umumlashgan va yaxlit ko'rsatkichi hisoblanadi. Iqtisodiyotda aholi yalpi pul daromadlaridan barcha majburiy va ixtiyoriy to'lovlar (soliqlar, qarz puli, badallar) chegirib tashlangandan so'ng uning qo'liga tegadigan daromad ham muhim ahamiyatga ega. Aholi qo'liga tegadigan daromad miqdoriga soliqlar kuchli ta'sir etadi. Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi daromadning 2/3 qismini tashkil etadi. Agar mamlakatda xususiy mulk ustivor, renta, aholi pul jamg'armasi ko'p bo'lsa, bank to'laydigan foiz puli salmoqli bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkib jihatidan mehnatdan, tadbirkorlikdan, mulkdan olingan daromadlar va transfert (nochorlarga byudjetdan beriladigan nafaqa va yordam puli) kabi daromadlardan shakllanadi. Transfertlar nobozor daromadi, qolganlari bozor daromadi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida O'zbekistondagi Aholi daromadlarida bozor tizimiga xos yangi daromad turlari (tadbirkorlik, mulk daromadi kabilar)ning ko'payib borishi kuzatiladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda aholi daromadlari hajmi o'sishda davom etmoqda. Bu jarayon amalda aholi turmush darajasi bilan bevosita bog'liq.





**1- rasm. 2010-2024 yillarda O'zbekistonda aholi umumiy
daromadlari hajmining o'sishi dinamikasi, (mlrd so'm)**

Ushbu diagramma ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2010 yilga nisbatan O'zbekistonda aholi umumiy daromadlari hajmining o'sishi qariyb 70 foizga o'sib 2024 yil yakuni bo'yicha 896 274,4 mlrd so'mni, ya'ni 14 barobarga o'sganligini ko'rish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, aholi umumiy daromadlari hajmining o'sishi asosan mamlakatda aholining tadbirkorlik qobiliyatining o'sganligi va xizmatlar sohasining kengayganligi hisobiga amalga oshganligini kuzatish mumkin.

Mamlakatimizda aholini turmush farovonligini oshirish, ayniqsa, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan ko'plab loyihalar, dasturlar ishlab chiqilib, tadbirkorlik faoliyatini boshlash niyatida bo'lgan fuqarolar uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

O'tgan qisqa davrdagi islohotlar, ayniqsa, tadbirkorlik rivojiga qaratilayotgan e'tibor hayotimizning barcha jabhalarida yangilanish va tub o'zgarishlarga zamin hozirladi. Jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy manzarasi butunlay o'zgardi.

Izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar zahirida, avvalo, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash, bandligini ta'minlash orqali daromadlarini oshirishdek ezgu maqsadlar mujassam. Zero, bu sa'y-harakatlar natijasida aholi bandligi va daromadlarini oshirishga erishilmoqda.

Buni yil boshidan buyon tadbirkorlik, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda 2 million aholining doimiy bandligi ta'minlangani, 4 milliondan ziyod aholi mavsumiy mehnat orqali daromadli bo'lgani misolida ham ko'rish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Acemoglu, And A. Scott (1994): “Consumer Confidence and Rational Expectations: Are Agents’ Beliefs Consistent with the Theory?” *Economic Journal* 104(422), pp. 1–19.
2. P.Bordalo, , N. Gennaioli, and A. Shleifer (2018): “Diagnostic Expectations and Credit Cycles.” *Journal of Finance* 73(1), pp. 199–227.
3. A.Fuster, D. Laibson, and B. Mendel (2010): “Natural Expectations and Macroeconomic Fluctuations.” *Journal of Economic Perspectives* 24(4), pp. 67–84.
4. T. A.Garrett, , R. Hernández-Murillo, and M. T. Owyang (2005): “Does Consumer Sentiment Predict Regional Consumption?” *Federal Reserve Bank of St. Louis Review* 87, pp. 123–135.
5. Z.I.Xakimov. Tomorqa- daromad manbai va oilaviy farovonlik asosi . *Ilg'or Iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, 2025-yil, №3. – B. 793-799.
6. Z.I.Xakimov. Oziq-ovqat xafsizligi muammosini bartaraf etishda aholi tomorqa yerlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali*, 2023-yil, №. 6– B. 255-260.
7. Z.I.Xakimov. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish imkoniyatlari. *Tadqiqotlar jahon - ilmiy metodik jurnali*, 2024. №38 . – B.3-7.
8. R.Schiller, (2000): “Measuring Bubble Expectations and Investor Confidence.” *Journal of Psychology and Financial Markets* 1, pp. 49–60.